

USMON AZIM DRAMALARIDA IJTIMOY KONFLIKTNING BADIY
IFODASI (AYOL OBRAZLARI MISOLIDA)**Zarina Bahronova**

G'ijduvon tuman 45-maktab ona tili va adabiyot

o'qituvchisi, izlanuvchi (90 463 44 00)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21904059>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Usmon Azim dramalarida ijtimoiy konfliktning badiiy ifodasini ayollar obrazi timsolida, ularning ruhiyatida kechadigan qarama-qarshi ziddiyatlar, sevgi va sadoqat masalasi, ayriliq va hijron motivlari to'g'risida so'z yuritilgan. Misol sifatida "Adibning umri" dramalar to'plami tanlab olingan.

Аннотация: В данной статье рассматривается художественное воплощение социального конфликта в драматических произведениях Усмона Азима — видного деятеля современной узбекской литературы; особое внимание уделяется женским образам, переживаемым ими внутренним противоречиям, темам любви и верности, а также мотивам разлуки и тоски. В качестве материала для анализа выбран сборник пьес «Жизнь писателя» (*Adibning Umri*).

Abstract: This article examines the artistic expression of social conflict in the dramas of Usmon Azim—a prominent figure in contemporary Uzbek literature—focusing on female characters, the inner contradictions they experience, themes of love and loyalty, and motifs of separation and longing. The drama collection *Adibning Umri* (The Writer's Life) has been selected as a case study.

Kalit so'zlar: drama, ijtimoiy konflikt, badiylik, obraz, badiiy tasvir, xarakter, ruhiyat rasviri.

Ключевые слова: драма, социальный конфликт, художественное качество, образ, художественное изображение, персонаж, изображение внутреннего мира.

Keywords: drama, social conflict, artistic quality, image, artistic depiction, character, portrayal of the inner world.

Adabiyotshunoslikda psixologizm masalasi qahramonning ichki dunyosini, ruhiy holati, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlari va hayajonlarini badiiy yo'sinda tasvirlashga asoslanadi. Mazkur tushuncha ikki usul, ya'ni bevosita va bilvosita tasvirlash usuli asosida yuzaga chiqadi. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov o'zining "Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari" darsligida yuqorida berilgan ikki tushunchani izohlab o'tadi: "Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining "ichki

monolog”, “ong oqimi” tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-soʻzlari, yuz-koʻz ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik oʻzgarishlarni koʻrsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir” [1.72-b]. Olim fikrlarini asoslash maqsadida quyidagi misolni keltiradi: “Otabek garangsigansimon devorga suyangan, mundagi allaqanday maʼnolarni onglatqan taxt, toj, xon, bek kabi lash-lushlar uning koʻz oʻngida qadr-u, qiymatsiz... Toʻgʻrisi ul ajib bir tabiatga kirgan, vujudi quruq va hissiz...” [1.70-b]. “Oʻtkan kunlar” romanidan olingan ushbu parchada adib oʻz qahramonining ruhiy holatini bevosita yaʼni fikrlari orqali ochib berishga harakat qilgan:

“Bu borada “Kecha va kunduz” romanidan olingan quyidagi parchaga ham eʼtibor qaratish mumkin: “...U faqat Qumrining soʻzini – “bittasi oʻzimizning aravakash...” degan soʻnggi soʻzini eshitib oldi. Yuragi oʻynadi... darhol burilib tashqariga qaradi. Yurak oʻynashi bosilmadi. Lablar titramoqqa boshlagan edi...” [1.72-b].

Yozuvchi Usmon Azim dramalarida xarakterlar, ularning tuygʻulari, kechinmalari va koʻngil iztiroblarini tasvirlashda oʻziga xos mahoratini namoyon etdi. Ijodkorning “Adibning umri” toʻplamidan joy olgan “Kunduzsiz kechalar”, , “Abdulla Qahhor”, “Tohir va Zuhra” kabi koʻplab dramatik asarlari qatorida “Bir qadam yoʻl” deb nomlangan asari alohida ajralib turadi.

“Bir qadam yoʻl” dramasida adibning inson ruhiyatini tasvirlashdagi mahorati ayollar timsoli talqinida yaqqol koʻzga tashlanadi. Asarning voqealari rivoji, badiiy konflikt ifodasida ayollarning muhim oʻrni bor.

Ayol uchun eng yuksak maqtoʻv bu – uning turmush oʻrtogʻi tomonidan berilgan bir ogʻiz shirin soʻz va ozgina boʻlsa-da mehr. Bundan ortiq baxt boʻlmasa kerak dunyoda! Saodat ham eri Joʻradan eshitgan birgina soʻz: “Sen yaxshi ayolsan... Yigʻlama, yigʻlamasang-chi!” [2.341-b]. Oddiy qishloq raisi bundan boshqa jimjimador soʻzlarni ayta olmasa-da, xotini uchun bu butun bir dunyo edi. Uning bu daldasi ayolining holatiga, ruhiyatiga, tabiiyki, taʼsir koʻrsatdi va qahramonlar oʻrtasidagi munosabatning oʻzgarishiga sabab boʻldi.

Ovsini Begʻam esa Saodatning tamomila teskarisi boʻlib, uning uchun turmush oʻrtogʻi Shokir tomonidan aytiladigan har bir soʻz, alqov, erkalash, suyish boʻlsin yuragiga oʻqdek sanchiladi, jarohatlaydi, u faqat farzandi Isroil uchungina tirik, faqat uni deb nafas oladi, uni debgina Shokirning orqasidan ergashadi. Yozuvchi qahramonning holatlarini ifoda etishda ruhiyat tasviridan oʻrinli foydalangan:

“Shokir: Begʻam, nega koʻzlaring qizargan? Yigʻladingmi?”



Beg'am: Yig'ladingmi?!

Shokir: Nega yig'laysan?

Beg'am: Men sizga turmushga chiqayotganda, bir umr yig'lashni bo'ynimga olib chiqqanman.

Shokir: Beg'am, seni yaxshi ko'raman. Sen esa menga yigirma yildan buyon yovga qaraganday qaraysan. Men bilan pinhona jang qilasan. O'zingning bir chegaralaring bor. U joyga meni yaqinlashtirmaysan ham" [2.369-b]. Bunda yozuvchi daramatik asarning tabiatidan kelib chiqqan holda qahramonlarning ruhiy holarlarini ularning nutqida ifoda etgan. Ya'ni Beg'amning ko'zlari qizarishi, yig'lagani holatlari Shokir nutqi orqali anglashiladi. Beg'amning nutqida ham kuchli ruhiy iztirobning natijasi yuzaga chiqqanligi kuzatiladi. Demakki, ushbu tasvirlarda yozuvchi bilvosita tasvirlash usuli asosida qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarni ifoda etgan.

Asarning boshqa bir o'rnida Beg'amning ovsini Saodatga: "Bu dunyoda hammaning ham o'z do'zaxi bor, ovsinjon, xudo deng!" [2.348-b], degan so'zlarida ham ichki iztiroblari namoyon bo'lgan. U garchi oldin boshqa kishini sevgan bo'lsa hamki, eriga, oilasiga sadoqatli, xiyonatni xayoliga ham keltirmaydi.

Asardagi Salima obrazi dramada ham iztiroblar iskanjasida tasvirlanadi. Salimaning Qosimga nisbatan: "Men sizni deb uyat hayoni yo'qotdim! To'qqiz yil bo'ldi – oromim yo'q! Sizni deb hamma narsamdan kechdim! Ota-onamni yuzini yerga qaratdim! Oilamdan voz kechdim! Erimdan ajraldim! Mana, orqangizdan sharmandalikni bo'ynimga olib, ergashib yuribman! Yolvoraman, bandimdan uzilay-uzilay deb turibman, to'kilmasimdan oling meni! Xotinlikka olmasangiz, kanizlikka oling! Cho'ringiz bo'lay!" [2.364-b]. Bu monologik nutq (Qosimga qaratilgan edi.) orqali yozuvchi uning qalbidagi kechinmalarini yorqin aks ettirgan. Qahramon kuchli ruhiy iztiroblarni boshidan kechirganligini anglash mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, dramatik asarda monolog qahramonning ichki olamini yuzaga chiqarishda muhim vosita hisoblanadi. Chunki qahramon kuchli ichki ziddiyatlarni boshidan kechirgan holatlarida o'z-o'ziga so'zlaydi. Hech kimga ayta olmagan dardlarini o'quvchi, tomoshabin qarshisida yuzaga chiqaradi. Bu ham ruhiyat tasvirini ifoda etishning bilvosita usuliga misol bo'ladi, deyish mumkin. Chunki yozuvchi qahramon ichki kechinmalarini uning nutqi orqali yuzaga chiqarmoqda.

Bundan tashqari, Usmon Azim "Kunduzsiz kechalar" dramasida Soliha, "Adibning umri"da Zarifa, "Abdulla Qahhor" da Kibriyo, "Tohir va Zuhra" da Zuhra, "Tong otgan taraflarda" dramasida Tongyorug', Kunyorug' singari sadoqatli, matonatli, irodali ayollar timsolini yaratadi va ular tasvirida ham



psixologizmdan unumli foydalandi. Masalan, “Kunduzsiz kechalar” dramasida qahramon va muhit o`rtasida kechadigan ijtimoiy konfliktidan tashqari, ichki psixologik ziddiyat tasvirini ham ko`p o`rinlarda uchratamiz: Masalan, Cho`lpon va Soliha dialogiga e`tibor qaratsangiz, ayoli uni jonidan ortiq ko`radi, ammo muhit taqozosi bilan eri uni o`zidan yiroqlashtirmoqchi.

Cho`lpon. Tushunmayapsan...Men aytayapmanki...(birdan qat`iyat bilan.)Xullas, ajralishimiz kerak! Mendan qancha tezroq uzoq ketsang, shuncha yaxshi!... Soliha, meni sevsang, “Abdulhamid akamni bu dunyoda rozi qildim” deb o`ylab yurging kelsa, hozir ket! Ket!...

Soliha. Kuygan bag`rim, suyangan tog`im, ulug` shoirim, meni shunchalar past ayol deb o`yladingizmi! Ketmayman! [4.29-b]. Ko`rinadiki, bu o`rinda ayol sevgi va sadoqati hech qanday xavfni ham, zamon nohaqliklarini ham pisand qilmaydi, uning maqsadi – bitta, u ham bo`lsa o`zining umr yo`ldoshi yonida abadiy qolish. Ming afsuslar bo`lsinkim, ular yashagan davr va ularning atrofida qolish bunga yo`l berishmaydi. Ayni mana shu o`rinda qahramonlar va muhit o`rtasidagi ijtimoiy konfliktning badiiy ifodasini ko`rishimiz mumkin. Xuddi shunday vafo va sadoqat timsolini Usmon Azimning “Abdulla Qahhor” dramasida Kibriyo Qahhorova va adib Abdulla Qahhor munosabatlarida, adibning eng og`ir vaziyatlarida ham uning yonida turib, unga dardkash va hamdard bo`lganligining o`zi ham bir ayol uchun eng buyuk jasorat hisoblanadi.

Kuzatish mumkinki, dramatik asarda qahramon ruhiyatini tasvirlash imkoniyatlari keng bo`lib, yozuvchi Usmon Azim o`zining “Adibning umri” dramalar to`plamida ayollar ruhiyatini tasvirlashda o`ziga xos yo`l tutganligi ko`rinadi. Adib asarlarida ko`proq qahramon ruhiyatini tasvirlashning bilvosita usuliga murojaat etgan holda personajlar xarakterini chuqurroq ochishga erishganligi ko`rinadi.

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim yaratgan dramalarining badiiy jihatdan mukammalligini ta`minlagan muhim jihatlardan biri personajlar xarakteri va ruhiyatini tasvirlashdagi mahoratida ko`zga tashlanadi. Yozuvchi qahramonlarini gap-so`zlari, xatti-harakatlari bilan bir qatorda ichki olami tasviriga ham katta e`tibor qaratadi. Natijada yozuvchi asarlarning ta`sirchanligi oshadi, kitobxon va tomoshabinlarning diqqatini tortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. – 310 b.
2. Usmon Azim Bir qadam yo`l. / Ozod Vatan Saodati. Besh jildli. Uchinchi jild. Dramaturgiya. – Toshkent: Adib, 2013. – 536 b.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 2005. – 272 b.





4. Azim U. Adibning umri.- Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 436 b.

